



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

2025-yil 3-may, shanba,  
52 (24.078)-son

O'zbek xalq  
maqoli

Yovlashmoq -  
oson,  
yarashmoq  
qiyin

Prezident  
farmoniga ko'ra

## Pedagogika yo'naliishida sirtqi ta'lim bo'lmaydi

Prezident joriy yil  
28-aprelda "Pedagog  
kadrlar tayyorlash  
tizimini yanada  
takomillashtirish chora-  
tadbirlari to'g'risida"gi  
farmonni imzoladi.

Farmonga ko'ra, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti negizida Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tashkil etiladi. Universitet respublikada pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha yetakchi oliy ta'limga tashkiloti etib belgilandi.

2025/2026-o'quv yilidan universitetning boshqaruv tizimi "Yangi O'zbekiston" universiteti tajribasi asosida tubdan takomillashtiriladi.

Universitetning mavjud 14 ta fakulteti maqbullashtirilib, 6 ta pedagogika oliy maktablari tashkil etiladi;

akademik faoliyat raqam-lashtirilgan boshqarish tizimi (Learning management system) orqali yo'lg'a qo'yildi hamda "Oliy ta'limgarayonlarini bosh-qarish" (HEMIS) axborot tizimi bilan integratsiya qilinadi;

Universitetning bakalavriat ta'limga yo'naliishlariga 1-kursdan xalqaro ta'limga dasturlari bosqichma-bosqich joriy etiladi.

2025/2026-o'quv yilidan pedagog kadrlarni tayyorlash faqat kunduzgi va kechki ta'limga shakli bo'yicha tashkil etilib, sirtqi ta'limga shakliga qabul amalga oshirilmaydi.

Oliy pedagogik ta'limga yo'naliishda nodavlat ta'limga xizmatlarning ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi xulosasi asosida amalga oshiriladi.

Alohida ta'limga ehtiyojlar bo'lgan bolalarga ta'limga tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida "Gospital pedagogika" magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lg'a qo'yiladi.

2026-yil 1-sentabrdan respublikadagi mavjud pedagogika texnikumlarining o'quv jarayoniga xalqaro ta'limga dasturlari bosqichma-bosqich joriy qilinadi.

Oliy Majlis Senatining oltinchi yalpi majlisida "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi Qonun ma'qullandi.

Ma'lumotlarga ko'ra, sayyoramizda iqlim o'zgarishining asosiy sababi yer yuzasidan chiqadigan unzu to'lqinli radiatsiyani yutib, atmosferada issiqxona effekti hosil qilayotgan gazlardir. Shu toifaga kiruvchi gazlar "Issiqxona gazlari" deb ataladi. Bu jarayonning mohiyati quydigicha: quyoshdan keldigan radiatsiyaning bir qismi (30 foiz) atmosfera tufayli bulutlar orqali kosmosga qaytadi. 15 foiz atrofidagisi esa atmosfera qatlamlarida yutiladi, qolgan energiya atmosferadan o'tib, yer yuzasiga yetib keladi va uni isitadi.

Yer o'z navbatida atmosfera orqali uzun to'lqinli infraqizil nurlarni koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o'rniqa issiqxona gazlari tomonidan yutiladi va shu asosda atmosfera me'yordan ortiq qiziydi, oqibatda yer iqlimiga ta'sir

2 may kуни ўтказилган халқ депутатлари вилоят Кенгашининг ўн иккинчи сессиясида шундай қарорга келинди.

Вилоят Кенгаши раиси Шуҳрат Негматов бошқарган сессияда ўзбошимчалик билан эгаллаб олинган ер участкалари ҳамда уларда курилган бинолар ва иншиотларга бўлган ҳукуклари эътироф этиш тўғрисидаги масала мухокамиаси чоғида депутатлар бу гал ваколатли органларнинг Булунгур, Каттакўргон, Оқдарё, Жомбой, Пайарик, Нарпай ва Паҳтачи туманларида 44 та ер участкаси ва бино, иншиотларга бўлган ижара ҳамда мулк ҳукукларни эътироф этидилар. Лекин вилоятда эътироф этилиши керак бўлган ер участкалари ва объектлари жуда кўп бўлгани ҳолда бу жараён суст кетаётганини ҳайди этиб, хатлов ишларни олиб бориш учун кўшишма куч ва воситаларни жалб килиш зарурлигини таъкидладилар. Шунинг учун ушбу масалада Кадастр агентлигига халқ депутатлари вилоят Кенгашининг сўровини юбориши ҳамда вилоят ҳокимига таклиф билан чиқиша қарор килинди.

Сессияда вилоядта криминоген вазиятни яхшилаш, жиноятларнинг барвақт олдини олиш, ҳукуқбузарликларни бартараф этиш юзасидан кўрилаётган чоралар бўйича вилоят ички ишлар бошқармаси бошлиги Раҳмат Маматов ҳисобот берди.

- Вилоятимизни жиноятчиликдан холи ҳудудга айлантириш, жиноятчиликка барҳам бериш учун, энг аввало, профилактик ишларимизни маҳаллалардан бошладик, - деди Р.Маматов. - Маҳаллаларда хавфсиз мухитни яратишga қаратилган тадбирлар натижасида 1126 маҳалланинг 248 тасида жиноятлар камайди, 815 тасида умумan жиноятни содир этилишига йўл қўйилмади.

Биринchi чоракда вилоят бўйича 2169 та жиноят ҳайди этилган бўлб, уларнинг 885 таси кибер жиноятлар хисобланади. Ушбу жиноятларнинг 65 фоизида фуқароларнинг ўзи банк картаси кодини жиноятчilarga бергандиги, 25 foizi ҳолатда интернет орқали онлайн саводларни амалга ошириша пул маблагларини олдиндан ўтказгандиги маълум будли. Ушбу хавфдан кутулишнинг энг самарали йўли эса юртдошларимизда кибр жиноятларга қарши "кибер маданият"ни шакллантириш, ўзимизни ушбу жиноятлардан химоя қилиш хисобланади.

Бошқарма бошлиги биринchi чоракда 225 та ўғирлик жинояти содир бўлгани, 172 та йўл-транспорт ходисаси оқибатida 52 нафар фуқаро вафот этгани ва 96 та фирибгарлик жинояti юзага келганини афсус билан ҳайди этиб, бундай ҳолатларнинг олдини олиша ҳукуқ-тartibot идоралари билан бирга кенг жамoатчилик xam faoliy iishlashi зарурliгини таъкидлади.

Шундан сўнг Олий Мажлиснинг Инсон ҳукуклari бўйича вакили (Омбудсман)нинг митқавий вакили О.Тошниёзов 2024 йilda

## Кадастр агентлигига Кенгаш сўрови юборилади



амалга оширилган ишлар тўғрисидаги ахборот берди.

Ҳайди этилишича, ўтган йил минтақавий вакилга 332 та мурожаат келип тушган ба бу мурожаатларнинг 51 таси жазони ижро этиш муассасаларидан келган. Мурожаатларни ўрганиш натижасида давлат органлari ва идоралariга 7 та тақдимнома ва 1 та хулоса киритилган.

Шунингдек, минтақавий вакил томонидан жамoатчилик гурухлari билан ҳамкорлиқда жазони ижро этиш муассасалari, вактинча саклаш ҳибсоналari, руҳий касалликлар шифохонаси, Муруvvat va Саховат уйларида 103 маротаба мониторинг ташriflari амалга оширилган. Бу жараёнда 800 га яқин маҳкум билан жамoавий ҳамда 285 нафар маҳкум ва маҳкуmalар bilan якка тартибида учрашувлар ўтказилган.

- Мониторинг ташriflari давомида вактинча саклаш ҳибсоналарида бир қатор салбий ҳолатлар тизимили равишда сакланниб қолаётгандиги, камералarda оддий ва ортиқча мабlag талаб этиilmайдиган жиҳозлар етишмаслиги, сунъий шамоллатиш

тизими соz ҳолатда эмаслиги, айрим бинolар таъmiрtalabligi кузатили, - деди О.Тошниёзов. - Вактинcha саклаш ҳибсоналariда сакланяётган шахslarнинг ҳукуклari, эрkinliklari va makhburiyatlari тўғрисидаги маъlumotlар osib kўyilmaganch. Ҳибсоналarнинг камераларида сакланяётган шахslarнинг faktik makhburiyatlari тўғrisidagi maъlumotnomalar joyhaishiyliganch.

Ахборотда ҳайди этилган камичиликлар юзасидан вилоят ИИБ маъсули муносабat билдириб, muammol tizimiли равishiда ҳад этилаётгани, жумладан, Самарқанд шахridagi vaqtinchada саклаш ҳiбsonasini tasmirlash юзасидан Ички ишлар vazirligiga taklif berilganimi maъlum қildi.

Сессияда Тошниёзов Отабек Полвонович Самарқанд вилоятini xududiy сайлов комиссияsi raisligiga, Бўрибоев Азизбек Баҳронович комиссия kотibligiga tavsiya etiladi va bu haқdagi karor Marказий сайлов комиссияsi юборildi.

Сессияда Кенгаш вакolatiga tegisli boşqa masalalap ham kўyiliib, karorlar қabul қilindi.

## Mahalla raislari saylovi boshlandi



lashuvchi hududiy komissiyalar tarkibi tasdiqlandi.

Mahallalarda tashkil etilgan 10192 nafar a'zoni o'z ichiga olgan ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar belgilabin, ularga tavsiya va namunaviy hujjatlar to'plami tarqatildi.

Saylovi tashkil etish va o'tkazish maqsadida viloyatimizga 1,5 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilishi rejalashtirildi. Bu har bir mahalla uchun o'rtacha 1376 ming so'mdan taqsimlanadi.

Xususan, Ishtixon tumanidagi Katta Qang'li mahallasida o'tkazilgan saylovda 340 nafar vakil hamda hududagi boshqa mahallalar ishchi guruhlar rahbarlari ham qatnashadi.

Mahalla raisligiga ko'sratilgan uch nafar nomzod o'z dasturi, maqsad va rejalarini bayon qildi. Shundan so'ng vakillar nomzod uchun yashirin ovoz berishda qatnashdi va saylovchilarning eng ko'p ovozini olgan Sherali Otaqulov mahalla fuqarolar yig'ini raisi etib saylandi.

Shohrux AHROROV, Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi shu'ba rahbari.

## Global isishga qarshi choralar



ko'sratadigan issiqxona qatlami hosil bo'ladi. Atmosfera havosiga chiqarilayotgan issiqxona gazlari global isishga sabab bo'layotgani bugun hech kimga sermas.

Ushbu qonun yil boshidagi yalpi majlisida ham ko'rib chiqilib, uni qayta ko'rish lozimligi aytildi. Bu ish Qonunchilik palatosi va Senat hamkorligida tuzilgan ishchi guruh tomonidan o'rganilib, kamchiliklar to'ldirildi.

Qonunda issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish natijasida hosil bo'ladigan uglerod birliklari muomalasini amalga oshirishning tartibini belgilash hamda issiqxona gazlari chiqarilishining tizimi nazaratini ta'minlashga e'tibor qaratilgan.

Hujjatda issiqxona gazlari chiqarilishini cheklashning asosiy prinsiplari, uning monitoringi, hisoboti va verifikatsiya tizimi asoslari, tartibi, qisqar-

tirilan issiqxona gazlariga egalik qilish huquqlari belgilangan.

Mazkur qonunning qabul qilinishi Parij bitimiga asosan issiqxona gazlaring chiqarilishini qisqartirish bo'yicha olingan majburiyatlar O'zbekiston tomonidan bajarilishini ta'minlashga, mamlakatimizda iqlim o'zgarishi bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni jadallashtirishga, atrof-muhit va ekologiyani yax-shilash hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun zarur sharoitga xizmat qiladi. Shuningdek, O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan iqlim o'zgarishi va issiqxona gazlari qisqartirish sohasida ikki tomonlalama hamkorlik loyihibarini samarali amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shavkat SHARIPOV,  
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Senator mulohazasi





## Toshkentdan deputatlar keldi



Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Samarqandda saylovchilar bilan uchrashdi. Tadbirlar tafsilotlari keng yoritilmagan bo'lsa-da, ayrim fakt va ma'lumotlarni bilib olish mumkin.

Xususan, Zebuniso Rahmonova Samarqand shahridagi "Samarqand ko'zmunc-hog'i" nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini o'rgangan Dahyedir mahallasi yoshlar hamda xotin-qizlar bilan uchrashuv o'tkazgan.

Deputat "Ziyoda" bolalar bog'chasida yaratilgan shart-sharoitlar, moddiy texnik bazasi bilan yaqidan tanishib, taklif va tavsiyalar bergan.

Amalda mamlakatimizda beshta siyosiy partiya bor. Parlament quy'i palatasiga viloyatdan saylangan deputatlardan orasida ularning har biridan vakil bor. Ajablanrlisi, ular saylovchilari huzuriga kelishganda parmiyavilagini ajratish mushkul.

O'tgan hafta okruglarga kelgan deputatlar ishtirokida tadbirlar ham bu "prinsip" o'zgarmaganini ko'rsatdi. Misol uchun, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Zebuniso Rahmonova, Bekmirza Eshmirzayev va Botirali Shodiyevlar Boshdarxon mahallasidagi ollaving shifokorlik punktida bo'lishdi.

Tarqatilgan xabarlarga ko'ra, 2011-yilda tashkil qilingan shifokorlik punktida 13 ming 135 aholiga birlamchi tibbiy sanitariya xizmatlari ko'rsatiladi. Hududda 2017 ta homilador aylolga 3 ta tibbiy brigada doyalari xizmat qiliyapti. 40 yoshdan oshgan aholi yurak-qon tomir va qandil diabet kasalliklarining oldini olish maqsadida skriningdan o'tkazilmoqda.

Rejaga muvofiq, tibbiyotning birlamchi bo'g'inda 30-65 yoshdagi ayollarning elektron bazasi (ro'yxati) shakkantirilib, 30-50 yoshdagi ayollarda bachardon bo'yni sarotoni skriningi bo'yicha test o'tkazilayotganligi aniqlangan va deputatlardan nazoratiga olingan.

- Bugungi kunda yuqumli kasalliklarning soni tobora ortib, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sog'lon turmush tarzini targ'ib qilish eng muhim vazifalardan biriga aylandi, - deydi Sanitariya-epidemiologik osoyish-talik va jamoat.

salomatligi qo'mitasi viloyat boshqarmasida bo'lgan deputat Zebuniso Rahmonova. - Bu boroda amalga oshirilayotgan ishlar faqat markazlarda emas, yurtimizning eng chekka hududlariga ham yetib borishi lozim.

Qayd qilingan uch deputat uchta partidan. Bir joyga borganini yomon demochimasmiz, ammo ularning siyosiy qarashlari turlicha bo'lishi, masalaga munosabati, yondashuvি bir-birdan farq qilishi kerak emasmi?

32-Samarqand saylov okrugidan saylangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Jasur Shodiyev hamda Kattaqo'rg'on shahar Kengashi deputatlari, shahar savdo-sanoat palatasi rahbari hamrohligida Go'zalkent mahallasida bo'lib, fuqarolar yig'ini faoliyatining ish samaradorligini oshirish bo'yicha "Mahalla yettiligi" tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishgan.

Shuningdek, J.Shodiyev Paxtachi tumani hokimi Q.Xushbaqov bilan Paxtachi tumanidagi Xalq qabulxonasida jismoniy va yuridik shaxslarning qabulini o'tkazgan.

Qabulda 100 dan ortiq murojaat kelib tushgan. Tuman darajasidagi masalalarni joyida hal qilish choralar ko'rilingan, viloyat, respublika darajasidagi masalalar bo'yicha talab va takliflar ishlab chiqilgan.

35-Samarqand saylov okrugidan saylangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Muxsinjon Xolmuxamedov ham Urgut tumani aholisi muammolarini o'rganib, ularga yechim topish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rmoqda. Beshkon, Bahriin mahallalarini aholisi bilan muloqotda eski simyog'ochlardan shikoyat qiliygan. Hashar yo'li bilan mahallada tashkil qilingan kutubxonani jihozlash, ishga tushirish bo'yicha yordam so'ralgan. Mulopoltarda tibbiyot, uy-joy, bandlik va boshqa masalalarda ham murojaatlar tushgan.

Deputat ularda ko'tarilgan masalalar yechimi bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rinishini bildirgan.

34-Samarqand saylov okrugidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylangan Abdulla Aslanovning uchrashuvida o'tgan galgi muloqotlarda bildirilgan muammo hal etildi. Xususan, Toyloq tumanining Muborak va Galabotir mahallalarida elektr tarmoqlari uchun 38 beton ustun o'natalingan. Bu kabi amaliy ishlar tumandagi boshqa mahallalarda ham davom ettirilmoqda.

Y.MARQAYEV.

## Ilm-fan xorijiy hamkorlar bilan rivojlanadi

Samarqand davlat universiteti qoshida Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti ochilganiga ko'p bo'lmadi. Institut Jomboy tumanida joylashgan bo'lib, uning bugungi faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayonlari bilan qiziqdir.

- Dunyoda qishloq xo'jaligi fundamental fanlar negizida rivojlangan, - dedi institut direktori, professor Tospo'lat Rajabov. - Aqli qishloq xo'jaligi, aqli dehqonchilik, aqli issiqxona – bularning negizida fundamental fanlarning yutuqlari yotibdi. Oddiy tushuntiradigan bo'lsam, bugun rivojlangan davlatlarda dronlar orqali o'simliklarning kasalliklarini aniqlab, aynan kasal tushgan joyga dron yordamida kerakli dori yetkaziyapti. Bu amaliyot hali bizga yetib kelgani yo'q. Biz o'simlikning kasal bo'lgan joyiga ham, kasal bo'lgan joyiga ham bir xil dori separamiz. Dronni ishlab chiqargan odam agronom emas. Dronni fiziklar, matematiklar, dasturchilar yarataytadi.

Xorijda fundamental fanlarning qishloq xo'jaligidagi tafbiqi rivojlanib ketyapti. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, bugungi zamonaviy qishloq xo'jaligi fundamental fanlarning negizida rivojlangan. Biz mana shularni O'zbekistonda tafbiq qilmasqan, qishloq xo'jaligimiz eski qolipda qolib ketadi. Shuning uchun qarib bir asrlik tarixa ega bo'lgan Samarqand davlat universitetida fundamental fanlar, ya'ni matematika, fizika, kimyo, yangi fanlardan kompyuter texnologiyalari rivojlangan. Biz mana shu fundamental maktabning natalarini qishloq xo'jaligiga tafbiq qilishimiz kerak.

2020-yilda birinchi marta Samarqand davlat universiteti tarkibida qishloq xo'jaligiga yo'nalgan, qishloq xo'jaligida zamonaviy kadrlar tayyorlashni maqsad qilgan fakultet ochildi. Fakultetga agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi, deb nom berildi. Ikki yildan keyin Prezidentimiz qarori bilan mazkur fakultet institutga aylantriildi. Institut fundamental fanlar yutuqlari asosida qishloq xo'jaligining zamonaviy yo'nalishlarida malakali kadrlar tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilgan.

Biz asosan qishloq xo'jaligining yangi yo'nalishlari bo'yicha ishlashimiz va yangi yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashimiz kerak. Ilmiy kadrlar tayyorlash ham asosiy maqsadlarimizdan biri.

Institutimiz tashkil topganiga endi to'rt yil bo'ldi. To'rt yilda katta natijalarga erishish qiyin. Ayniqsa, oxirgi 25-30 yilda qishloq xo'jaligida to'planib qolgan, churq ildiz otgan muammolarni hal qilish darajasi-dagi institut hali shakllangan emas. Lekin zamonaviy qishloq xo'jaligi yo'nalishlari, qishloq xo'jaligi amaliyoti xorijiy hamkorlik-siz amalga oshmaydi.

Shu nuqtai nazardan agrar ta'lim va agrar ilm-fan yo'nalishida xorijiy hamkorlikni mustahkamlashga kirishadi. Xorijining eng rivojlangan davlatlari bo'lgan Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Italiya, Vengriya, Amerika, Germaniya va Islandiya universi-

## Ishsizlarga yer ajratish qanchalik samarali?

Respublikamizda yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo'jalik mahsulotlari dunyoning 90 dan ziyyod davlatiga eksport qilinmoqda. Meva-sabzavot va dukkakli mahsulotlarning eksport hajmi keyingi besh yilda 2 barobarga ortgan. Endi aholi bandligini ta'minlash, daromadini oshirish va qishloq xo'jalik yerlarini ijara berish orqali mahsulot hajmini ko'paytirish, qayta ishlashni tashkil etish va yerlarning unumdon qatlamini asrash maqsad qilingan.

Bu boroda 2021-yil 23-novabrda davlatimiz rahbarining "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilin-gan. Mazkur hujat asosida viloyatdagi 668 ta mahallada 23,6 ming getkardan ortiq yer maydoni qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun aholiga ijara berilgan. Jumladan, Past Darg'om tumanida 97 ta mahallada 3438 getkar yer maydoni 11,2 ming lotga bo'linish holda ishsiz fuqarolarga yoshlarga ajratilgan.

- Tumanimizda 3438 getkar maydonda tashkil etilgan 11,2 mingdan ortiq dehqon xo'jaliklarining barchasiga lider tadbirkorlari birkirtirilgan, - deydi kamabag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish tuman bo'limi shu'ba boshlig'i Alim Toirov.

- Lider tadbirkorlar yerni tayyorchashishda boshlab sifatli urug' bilan ta'minlash, mahsulotni xarid qilishgacha bo'lgan jarayonda dehqonqa yordam beradi. Ya'ni, dehqonlar faqat yerga ishlol berish va mahsulot yetishtirish bilan shug'ullanadi.

Shuningdek, tumanimizda 63 mingdan ortiq tomorqa xo'jaligi va ular ixtiyorida 6293 getkar ekin maydoni bor. Tomorqa xo'jaliklarining barchasida bahorigi ekilishi ta'minlandi va ertaki ekilardan 5666 tonna mahsulot yetishtirish ko'zda tutilgan. Har bir mahalladagi tomorqa xo'jaliklariga ham yuqorida aytilgan lider tadbirkorlar birkirtirilib, tomorqalarni sifatli urug' bilan ta'minlayapti va yetishtirilgan mahsulotni xarid qilmoqda.

### AHOLINING BIZNES TASHABBUSLARI QO'LLAB-QUVVATLANADI

"Sayxunbod" tajribasi asosida tumanda 1071 ta mikro loyiha shakllantirildi. Amalda esa qiymati 55 milliard 767 million so'mlik 1435 ta loyiha ishga tushirildi. Buning uchun tashabbuskorlarning 36,5 milliard so'm o'z mablag'i va 19,2 milliard so'm bank krediti jaib etilib, 2959 ta ish o'rnii yaratildi va rejadagi loyihalarning bajarilishi 135 foizni tashkil etdi.

2023-yil 31-yaverda Prezidentimizning "Olivay tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslari qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilingandagi. Ushbu qaror bilan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini miloviy qo'llab-quvvatlash, mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yaxshilash, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish, dasturlar bo'yicha avval kreditlardan foydalananigan aholi va tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish belgilangan.

Shu asosida oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida hokim yordamchilarining tavisiyasi bilan joriy yilning birinchi choragiда 881 ta mikroloyiha amalga oshirilib, 2202 ta ish o'rnii yaratildi. Yil yakunigacha mahallalarda 3500 dan



tetlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

Universitet rektori Rustam Xolmuroidov boshchilikdagi delegatsiya 2023-yilda Yaponianing Tottori universitetida bo'lib, o'qituvchilar malakasini oshirish, talabalar va o'qituvchilar almashinuv, ilmiy ishlar olib borish, kadrlar tayyorlash yo'nalishlarida uzoq yillik hamkorlik memorandumi imzolandi. Joriy il sakkih nafr talaba "Sakura" dasturi doirasida malaka oshirib keldi. O'tgan yili ham o'n nafr talaba ushbu dastur doirasida Yaponiyada malaka oshirib kelgandi. Talabalar xorijda zamonaviy qishloq xo'jaligi amaliyotlarini o'rganib qaytishdi. Nasib bo'lsa, noyabr oyida yana talabalarimiz Yaponiyaga amaliyotga yuborishni rejalashiriyapmiz.

Tottori universiteti qurg' oqchil mintaqalardagi dehqonchilik masalalari bilan shug'ullanadigan oly'a ta'lim muassasasi hisoblanadi. Shu bois viloyatida Tottori universitetining vakolatxonasini tashkil qildik. Bu vakolatxona nafaqat O'zbekistonda, Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi.

Janubiy Koreya bilan ham yetti yillik xalqaro loyihamiz bor. Loyihaning maqsadi meva-sabzavotchilik yo'nalishida zamonaliv texnologiyalar, bilimlar va amaliyotni O'zbekistonga joriy qilishidan iborat. Keli-shuvgu ko'ra, Janubiy Koreya bizga ikkita zamonaliv issiqxona qurib beradi. Issiqxonalaridan ilmiy va o'quv maqsadlarida foydalaniildi. Bunday issiqxona hali Samarcandda yo'q. Bundan tashqari, yetti yil davomida har yili 4-5 nafr professor-o'qituvchi va 10 nafr talabamiz Koreyada bir oy o'qib kelish imkoniga ega bo'ladi.

Xitoy bilan ikki masalada – Samarqand sharoitida yangi g'o'za va bug'doy navlarini yaratish bo'yicha ishlashimiz va tayyorlashimiz, - deydi laboratoriya boshlig'i Javohir Ravshanov. - Asosiy vazifamiz tuproq tarkibagi oziq elementlari miqdori va meliorator holatni tekshirib beramiz. Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'satamiz, ya'ni qanday ekin ekilishiga qarab, qancha miqdorda mineral o'q'itlar beradi. Tuproq tarkibidagi minerallar miqdorini aniqlab, so'ngira kerakli yaxshi bo'ladi.

- Tuproq tarkibini o'rganish va tuproq-dagi zararkunandalarga qarshi kurashish haqida ilmiy ish qilmoqchiman, - deydi 2-bosqich talabasi Husnobjod Jo'rabolayeva. - O'zim Nurobot tumanining Ulus mahallasidanman. Institutni bitirib, xorijda magistraturada o'qib, amaliyot o'tab qaytmoqchiman. Shu sohada yetuk mutaxassislar tayyorlashda ular kanuniyatlarni qo'liga kiritadi degan umiddamiz.

Institut yoshi bo'lishiga qaramay, o'z oldiga katta maqsadlarni qo'yan. Qishloq xo'jaligi sohasidagi muammollarin bataraf etishda va bu sohada yetuk mutaxassislar tayyorlashda ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lg'a kiritadi degan umiddamiz.



ortiq mikroloyihami amalga oshirish uchun 70 milliard so'm kredit yo'naltirish kutilmogda. Bu orqali joylarda yana 1000 dan ortiq xonadonda 4 mingdan ko'p yangi ish o'mi yaratilishi rejalashtirilgan.

### QULUPNAY DAROMADIDAN "DAMAS"

Tumanning Qo'qoni mahallasi "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili asosida qulupnaychilikka ixtisoslashgan. Ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turgan fuqarolarga ajratilgan ijara yerdar ham dehqonlar ushbu serdaromad ekinni ekmoqda. Shu mahallada yashovchi Latofat Yo'ldosheva ishsizligi tufayli "Yoshlar daftari" – ga kiritilgandi. 2022-yilda unga 10 yil ijara muddati bian 15 sotix yer maydoni ajratildi.

- Kelinimga ajratilgan yerda birinchi yil kartoshka, loviya eklik, ikkinchi yil hokim yordamchisining tavisiyasi bilan avval tomorqamizdagidagi 4,5 sotixga qulupnay eklik, - deydi Erkin Jalilov. - Yangiyo'dagi dehqonlardan tajriba uchun qulupnayning serhosil navlari, daromadni oshirish, yangi va iqlimga mos navlarni o'rgandim. Hozir Koreyaning "Min Xixon" va "Kennes-beri" navlarni ekamiz. Chunki bu nav ko'rinishi chiroyl, bozorgir bo'lib, ekkandan hosil beradi. Lekin har yili ko'chatni yangilaymiz. Negaki ikkinchi yildan qulupnay hosil maydalashib qoladi. Shuning uchun avgust oyida yangi ko'chat eklik, noyabrdan iyun oyigacha dugali issiqxona qilib hosil yetishtiramiz. 2024-yil noyabr oyida 30 yil muddatga yana 40 sotix yer oldik. Endi qo'shmlarimiz, mahalladoshlar ham qulupnay yetishtirishni boshlashdi. O'tgan yili qulupnaydan 150 million so'm daromad, shundan 100 million so'm so'f foysa oldik va "Damas" mashnasi xarid qildik. Bu yil yer ko'paydi, endi olimizdagilarning barchasi shu yerda mehnat bilan band bo'lamiz.

Азал-азалдан биз учун устоз ва шогирдлик қадрият бўлиб келган. Аммо бир вақтнинг ўзида илм ва ҳаёт йўлидаги устозлар учнчалик кўп эмас. Устоз Орзумурод Раҳматуллаев шундай шарафга мусассар бўлганилардан бири эди. Биз Орзумурод устоз билан Самарқанд давлат университетидаги танишганмиз ва шундан бўён фаолиятимиз давомида бир-биримиз билан устоз-шогирд бўлиб ишладик. Гапнинг очиги, у кишининг ҳаёти ҳамма учун катта мактаб бўлди.

## "Яшил энергия" бошловчиси

Олимнинг тоф ва воҳа ландшафтлари нинг структурасига кизиқиши бежиз эмас. У киши 1943 йил 10 октябрда Нурота туманидаги Қадоқ қишлоғида таваллуд топган. Шу ерда мактабни аъло баҳоларга тутатиб, озраси сарси йўл олади. Самарқанд давлат университетини тутатгач, устозлари тавсияси билан шу максада иш шубайди. У киши фаолияти давомида асистентидан факултет декани лавозимида бўлган йўлни босиб ўтган.

Бутун умри давомида ҳалол меҳнат килиб, география илми ва таълимига катта хисса қўшган олим узоқ йиллик машҳақатли меҳнати орқали Ўзбекистон География жамияти фахрий аъзоси, Самарқанд давлат университети профессори, география фанлари доктори даражасига эришиди. О.Рахматуллаев Ўзбекистондаги этакчи табиий географ ва геоэколог олимлардан бири бўлиб, ўрта ва кўйи Зарафшон ҳудудларидаги тоф ва воҳа ландшафтларининг структураси, динамикаси, геоэкологик ҳолати ва улардан оқилона фойдаланишинг илмий асосларини ўрганишга катта хисса қўшган.

Орзумурод ақанинг ҳаёти ҳамиша текис бўлмаган. У киши зиёга интилиб, кўплаб китоблар ёзиб, шогирдларининг, миллатимиз ва ҳалқимиз камолотига, табиати сир-асорларини билишида, ўзлигини англашда жуда баракали ижод қилди. Бундай саодатни ва мурakkab йўлда тўғри юрганилиги, шу йўлда бир қанча ёшларни эргаштирганини туфайли бугунги кунда у кишини миннатдор бўлиб эслайиз. Чунки тарбия кўрган қишилар миллатнинг қадрини, унга хизмат килганларнинг қадрини ҳеч қаҷон уннутмас экан.

Орзумурод Раҳматуллаев бутун ҳаётини илм-фанга бағишишган, кўп ёшларни фан оламида оёққа турғазган беназир



инсон эди. Бу инсоннинг бутун ҳаёти ва фоилияти ибрат мактабига айланган.

Устоз Самарқанд ландшафтшуносик мактабини намояндаси сифатида Антропоген ландшафтларнинг геоэкологик ҳолатини баҳолаш, уларга тушаётган антропоген юк мөъёлари кўрсатиларини биринчилардан бўлиб ишлаб чиқсан. Бундан 10-15 йиллар один бугунги кунда давлатимиз томонидан катта ётибор бериладиган "Яшил энергия" (куш, шамол, биоенергия) ва ундан фойдаланиш ҳақидаги илмий асосланган гоялар устоз томонидан иммий risosalari ва макалаларида бўлирган эди.

Етук олим, меҳрибон устоз Орзумурод ака ҳакида яна кўп хотираларни ёзиш мумкин.

Аммо илм ва ҳаёт йўлидаги улгурустонни тариф ва тасвижлаш ўта мараккаб бўлганлиги туфайли шу жойда нуқта қўйиб, у кишининг охиратлари обод бўлишини тилаб қоламиш.

География ва экология факультети жамоаси Орзумурод Раҳматуллаев хотирасини Мардон Умаров, Али Абдулқосимов, Лапсан Алибеков, Фахри Баҳриев сингари фидойи географ-устозлар каторида унтушмайди ва юксак қадрлайди.

**Алиқул РАВШАНОВ,**  
**Хайрулла ЖЎРАКУЛОВ,**  
**Дилбар ЖЎРАКУЛОВА,**  
**Самарқанд давлат университети профессор-ўқитувчилари.**

**Бундан 80 йил олдин фашистларни енгиб, ғалабага эришган юртдошларимиздан бири Соле Қобулов. У 1920 йилда Самарқанд шахридаги Абдулла Қаҳҳор мажалласида туғилган.**

Мактабни тутатгач, С.Қобулов Фаргона канали курилишига борган йиллари Самарқанд педагогика билим юртида ўқиб, уни муваффакијати билан тутатирган. Йирик сув иншооти курилишида нафақат оддий ҳалк, балки Ватанномизнинг турли гўшаларидан санъаткорлар, ёзувчи-шоиорлар ҳам ўз тупла ва чишиклари билан иштирок этган. С.Қобулов ҳам Тамарахоним, Мукаррахоним, Ҳалимаҳоним, Жўраҳон Султонов, Маъмуржон Узоқов ва бошқалар билан бир каторда концертлар кўйишда ёрдам берган. Шунингдек, Самарқанд шахридаги 1-сон маданият уйида руబоби ҳамда Тойлок тумани Адас қишлоғидаги мактабда мусика фани ўқитувчиси бўлиб ишлаган.

## Жанг кўрган санъаткор



Илигидан кўз очиб бўлмасди. Аммо Соле Қобулов бошлик разведкачилар гурухи атрофини зийраклик билан кузатишади. Бир маҳал дарёнинг кун чиқиши томонидаги сайхонликка немисларнинг ҳарбий самолёти кўнганини пайқаб қолишиди. Афтидан жанг учун ўқ-дори ва бошқа зарурий нарсалар кеттирилган қолишиди. Немислар унинг атрофида гимирлашиб қолишиди.

Соле фурсатни бой бермади ва дарҳол майдондан координатини аниқлашиб, раҳмиятни туттирилган танқлар координаталарини тўғри ва аниқ кўрсатиб, душманнинг бехосдан ҳужумга ўтиш учун ўштитирган юришини пучга чиқарди.

С.Қобуловнинг бу жасорати

эътироф этилиб, "Жасурлиги учун" кўкрак нишони билан тақдирланди.

Соле Қобулов 1943 йили Днепр

дарёси бўйидаги жанглarda ҳам қаҳрамонлик кўрсатиб Курск вилояти бўсағаларидан Берлингача бўлган оловли йўлни босиб ўтида Фронтдаги жасорати учун бир қанча орден ва медаллар билан тақдирланди. Шу билан бирга, ана шундай синовлий йилларда у санъатни ҳам ташлаб кўйиди. Дам олиш пайтлари, сафда, ҳатто Венгриянинг Дебресени шахрида яраланиб, госпиталда ётган вактида ҳам кўшиклир ишро этиб, аскарларни туларни тақдирлариди.

Уруш тугагач, у яна ўз қадр-дон мактабида мусиқа, она тили ва дарёйи фанларидан ўқувчилига сабоб берди. 1970 йилда ўзи түглиб ўстган Ҳамза мажалласига раис бўлди. Унинг ташбаси билан мажалла обод масканга айлантирилди, хонадонларга тоза ичмилк суви тортилди, тўй-маросимлар тартиби солинди.

С.Қобулов умр йўлдоши Оғботой ая билан олти нафар фарзандни камолга етказиб, илмли, қасб-хунарли килди. С.Қобулов 1987 йилда вафот этди. У кишининг ёрқин хотираси, жасорати, эзгу ишлари яқинлари, ҳамкаслари ва мажалла ахлининг қалибида аబдий яшайди.

**Олимжон ФАФУРОВ.**

**Аёл кишининг илм билан шуғуланиши унинг оиласи, фарзандлари, қариндош-уруг ва жамиятнинг илмли, маданияти бўлиши учун мустаҳкам пойдевордир. Донишмандларимиз айтганидек, "Эркак илмли бўлуди, фарзанд илмли бўлуди, аёл илмли бўлса, миллат илмли бўлуди".**

Демак, аёлларнинг илми бўлишидан жамият манбаётдор бўлиб келган. Ривожланган жамиятда тараққиёт даражаси аёлларга бўлган мунособат, улар учун юратилган имкониятлар билан беғиланди.

Хар бир инсоннинг ҳаёт мазмани ўз эл-орти, миллати тақдирда нечоғиз из колидргани билан беғиланди. Агар бундай из им-фан, таълим-тарбия салоҳияти билан мустаҳкамланса, янги авлодларга намуна бўларни даражада умр китоби яратилади. Бунга яқол мисоди сифатида Жиззах давлат педагогика университети хотин-қизлар кенгашини 40 йил давомида бошқарган ва ўзбек тилини ўқитиш методисти кафедраси катта ўқитувчиси сифатида миллий тилимизнинг таргиготига умрни бағишишган Абдувалиева Зиёти Норқўзиевнани келтириш мумкин.

## Илмлининг уйи чароғон

Эъзоз



ваваралари билан мулоқот

жараёнларни кузатиб, улар умргузаронлик қилаётган мухитга хавас қилиласиз.

Турмуш ўрготи Абдулхамид Абдувалиев – Жиззах давлат педагогика университетидаги катта ўқитувчи. Улар биргаликда тўрт фарзандни муносиб тарбия ялаб, бугун 13 нафар набира ва 4 нафар эвара қуршовида ҳаёт кечирмокда.

Зиёти Абдувалиеванинг фидокорона мехнатлари инобатга олиниб, "Мўътабар аёл" кўкрак нишони билан тақдирланган.

Устозни табору 70 ён билан табриклаб, у кишига узоқ умр, мустаҳкам соғлиқ билан бирга таълим-тарбия ва илим йўлди доимо фидойи бўлиб қолишини тилимайди.

**Дилдора СОЛИХЖАЕВА,**  
**педагогика фанлари бўйича**  
**фалсафа доктори.**  
**Танзила МАЖИДОВА,**  
**СамДУ география ва экология**  
**факультети доценти.**

REKLAMA, E'ONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'onlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## "URGUT SAVDO KOMPLEksi"

### MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

**Urgut tumanidagi "URGUT SAVDO KOMPLEksi" MCHJ ta'sischilarining 2024-yil yakunlari bo'yicha umumiyyat hisoboti yig'ilishi 2025-yil 29-may kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriyati binosida bo'lib o'tadi.**



**"URGUT SAVDO KOMPLEksi" MCHJ ta'sischilarining umumiyyat yig'ilishi da quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:**

- 2024-yil yakunlari bo'yicha boshqaruv raisining hisoboti;

- 2024-yil tashkilotning moliyaviy-iqtisodiy holati bo'yicha jamiyat bosh hisobchisi Sh.Xorinovning hisoboti;

- jamiyat taftish komissiyasi raisining hisoboti;

- 2024-yil yillik buxgalteriya balansini tasdiqlash;

- 2024-yil holati bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tashkilotining tekshiruv xulosasini tasdiqlash;

- jamiyatning 2025-yil uchun shtatlar birligi jadvalini tasdiqlash;

- jamiyatning 2024-yil yakuni bo'yicha ta'sischilarga ajratiladigan dividend taqsimoti

va uning to'lovini ko'rib chiqib, tasdiqlash;  
- jamiyat kuzatuv kengashining yangi a'zolarini va mustaqil a'zolarini saylash;  
- jamiyat boshqaruv a'zolarini saylash;  
- Samarqand viloyat bozorlar va savdo komplekslari uyushmasining 2024-yil 17-dekabr kunidagi 96-soni "Ishga tiklash to'g'risida"gi buyrug'ini tasdiqlash;  
- "URGUT SAVDO KOMPLEksi" MCHJni kapital ta'mirlash uchun ishlab chiqilgan loyihami tasdiqlash;  
- boshqa masalalar.

**Yig'ilishga qatnashish uchun o'zingiz yoki o'z ishonchli vakilingizni ishonch-noma orqali yuborishingiz so'raladi.**

**"URGUT SAVDO KOMPLEksi" MCHJ KUZATUV KENGASHI.**

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Pulatov Izzatullova (2024-yil 3-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona mas-kani, 14/12-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Sharipova Mavsumaga (2015-yil 8-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.**

\*\*\*

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Esheva Kubaro Raxmanovnaga (2024-yil 14-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Oqdaryo tumanı Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Axrorova Mavlyudaga (2024-yil 18-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Azizov

# ОЛИМУ ИЛМУ АМАЛ

Эъзоз 

Талабалик пайтимиз “Шарқ юлдузи” журналида ёш бир шоирнинг туркум шеърлари эълон қилинган эди. Ўша йиллар Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Омон Матжон ҳамда улардан кейнинг шоирлар авлодининг овози баралла жаранглётган эдик, журналда чоп этилган нотаниш шоирнинг шеърлари биз кўнинкан шеъриятдан ўзгачалиги, изҳори ва ифода янгилиги билан дарров диққатимизни тортганди.



Бу шоир Абдували Кутбиддин эди. Раҳматли устозимиз Нуриддин Шукурев ҳаэрт Навоийнинг “Бу олам саҳнида гул кўп, чаман кўп” сатрларини бот-бот тақоррорлар эдилар. Кейинчалик Абдували Кутбиддин шеърияти билан яқиндан танишган, чиндан ҳам бу олам саҳнида гул ва чаманлар ранг-бранглигига амин бўлганди.

1990 йил ўқишини тутагиб, тақдир тақозоси билан “Ёзувчи” нашриётига ишга борсан, Абдували ака ўша ерда шеърият бўйинни бошқараётган экан. Тез орада у киши билан тил топишеб, ака-уқадек бўлбіл кетдик. Илк таассуротим шундай эдик, у инсон бор-йўгини адабиёта тиккан эди. Ҳамсухбат топилса, куфли дили очиларди, адабиёту фалса-фадан, одамни оламдан тўлиб-тошиб, тўлқинланиб гапиради.

Шеър ўқиётганида оҳангига мослаб тебранишилари, жест ва мимикалари зикр тушаётган ўрта асрлар сўфиийларини ёдга соларди.

1990 йилнинг сентябр ёки октябр ойлари бўлса керак, Абдували ака нашриёт жамоасини Самарқандга, амакиларининг тўйига айтиб қолди. Ҳозирги кунлардан фарқли ўтарок, 90-йилларда удумларимиз мустаҳкамдек, турмушимиз бемалолроқдек, тўйларга бориш фарзеди эди, назаримда. Жамоамиз билан тўйга келдик. Тўй уйда бўлди ва мен ўша тўйда шоир амакизинг амакилари ва тўй соҳиби Муслихиддин домла Мухиддинов билан танишган эдим.

Орадан кўп ўтмай, устоз Муслихиддин Кутбиддинов билан бир жамоада ишаш наисбет этиди. Турли анжуманларда, адабий тадбирларда домланинг пафос билан, этирос билан чиқишиларни кўриб, Абдували Кутбиддинин шеър ўқишилари эсимга тушарди. Домланинг маъруза ёки чиқишилари шунчаки, номиганига, хўжакўрсинга бўймасди, катта-кичик ҳар қандай масала бўлмасин, албатта, унинг моҳиятини очиб, этибор ва жўшқинлик билан гапирадиларки, бу ҳам кўпчилликка ўзига хос сабоб бўларди. Шунда англаганим: жонқурлар, фидойилик тўйғулари ҳам кондан қонга, гендан генга ўтиб келадиган, безавол неммат экан.

Муслихиддин Мухиддиновнинг бобоқалонлари Валихон Эшон XIX аср охири XX аср бошлариди нақибандийлиг тарикатининг пешвоси сифатиди Моварооннахр элига маънавий рахномонлик қилғанлари ўз даврининг мухим адабий маనбаларидан бири Сайд Аҳмад Васлийнинг «Назм ус-силсила» асарида алоҳида таълидлаб ўтилади. Афуски, бу сулоланинг кейинги маънавий муршидлари Мухиддинов, Кутбиддинхон эшонлар шўро замонида таъкид ва таъқида яшидилар. Мана шундай маънавий-маданий мухитда вояжга етган Муслихиддин домлада имга, адабиётга ҳавас эрта уйғонди.

М.Мухиддиновнинг «Баҳром ва Дијором» тўғрисидаги достонлар туркумига бағишланган номзодлик диссертацияси ҳамда «Баҳромнома»лар тўғрисидаги катор саломокли тадқиқотлари тұфайли мумтоз адабиётшунослигимизда қиёсий-типологик таҳжил усулни ривожланишининг янги босқичига кўтарилиди.

Адабиётдаям, фалсафадаям шахс деган тушунча бор. Соддарок қилиб айтганда, бу шахсий сифатлари камолотга етган киши деганин. Одамоҳунлиги, самимияти, бағригенлиги, етти ўлчаб бир кесадиган мuloҳазакорлиги туфайли Муслихиддин домла минглаб шоигирларининг севимли устозига айлангани сир эмас. Минг ўлчаб ҳам бир кесишга журъат эта олмайдиган ёки аввал кесиб, кейин ўлчаб

юрадиган кимсалар кўпайган пайтларда жамият, инсоният ана шундай шахс ва шахсиятларга ҳамиса эҳтиёж сезган, сезаверади.

М.Мухиддиновнинг илмий ишларида комил инсон концепциясига aloҳида этибор қаратилган, айтиш мумкин, тадқиқотларидаги бош масала. Ба, булар ўз навбатида, тириклик ва тасаввуф, илму ирфон, ишқу ошиқ, пирү мурид, устоз-шоғирд тушунчаларига боғланиб кетади. Баркамол авлодни тарбиялашдек масуль вазифалар кўйилган бугунги кунларда, албатта, бу илмий изланишларнинг илмий-амалий аҳамияти бекўсёдир. Шу боис устознинг кўп йиллик меҳнатлари давлатимизнинг юқсак орден ва унвонларига лойиқ курилиши ҳам бежис эмас.

Академик Т.Мирзев М.Мухиддиновнинг “Кўнгил ҳайратлари” китобига ёзган сўзбошисида олимни Самарқандаги навоийшунослик силисласининг олтин ҳалкаларидан бири сифатида эътироф этади.

Устоз ўзок йиллар маънавият ва маърифат ишлари бўйича биринчи проректор бўлбіл ишларнинг кунларидан мен маъмур муддат университет газетасига муҳаррир эдим. Филология фанлари бўйича ихтисослашган кенгаш раиси бўлганларидан кенгаш котиби, раис ўринбосари, семинар раиси сифатида ёнма-ён ишаш наисбет этиди. Устоз ишга талабчан ва қаттиқўлдек туюлса, ана шу хислатлари замонда чиннакам инсоний меҳр ва некинлик бор. Баъзан битта-яримтани номақуб иши учун койсалар ҳам, зум ўтмай “ортиқа гапидрим-ов” дея ўзларига маломат кила бошлайдиларки, бу ҳам Шарқ шеърияти асрлар давомида орзу килиб келган баркамол инсон тўғрисидаги қарашларга яқин фазилатид.

Ҳар қандай илим кишишининг хисматлари унинг етказиб берган шоигирларидан билан ҳам хисобланади. Муслихиддин Кутбиддиновнинг бўйича борадаги хисматларидан ҳам ишрат олса бўлади. Муслихиддин Мухиддинов раҳбарлигига элларка яқин номзодлик, PhD, докторлик диссертациялари химоя килинди. Ҳолбуки, шунчак илимий даражада ходимлари бўлмаган баъзи хусусий ойлигоҳлар ҳам учрайдики, шу фактинг ўзиёқ бу ютуқлар замонида қанчадан-канчак маҳаққат, ўйкисуз тунлар, бехаловат дамлару заҳматлар бошдан кечалигини кўрсатиб турди.

Домла талаба-ёшлар орасида бирор бир иктидор эгасини кўрса, албатта, вакт топиб, уни ўзига яқин олиб, бегаз-раз маслаҳатлар беради, воға етгунча ва ундан кейин ҳам ғамхўрлар килиб юради. Мен факат икки кишида – раҳматли устозимиз Нуриддин Шукурев ва Муслихиддин Мухиддиновда кўрганман шу оdatни. Устозлардан ҳамиша ўрнек ва ибрат олишга ҳарқат қиласка ҳам кўпинча ўзидан ортмай қолишини ўйласа, хижолат бўлади киши...

Ал-Хоразмийнинг инсон моҳияти хусусида ажойиб тенгламаси бор:

- Агар инсон яхши хулқ соҳиби бўлса, у 1 га тенг.
- Агар инсон хусн соҳиби бўлса, бирнинг ёнига нолни кўш = 10 бўлади.
- Агар инсон бой бўлса, яна бир нолни кўш = 100 бўлади.
- Агар насл-насабли бўлса, яна бир нолни кўш = 1000 бўлади.
- Агар 1 рақами, янын хулқ йўқ бўлиб кетса, инсоннинг қўймати йўқа чиқиб, нолларнинг ўзи колади = 000.

Шу сабаб азалдан Шарқда таълим ва тарбия биргаликда олиб борилади, затар тарбия ўзигида биринчи навбатда ахлоқий масалалар туради. Устоз ўзок йиллик тажрибага эга мураббий сифатида илмий ва публицистик чиқишиларидан табииатига сингиг кетган маънавий баркамоллик, ахлоқий етгулик масалаларига алоҳида этибор қаратиб келмокда. Табиийки, илмига амал қиласа ҳақиқий олим саналадики, бу борада ҳам устознинг ҳавас килса бўладиган жиҳатларни бисёр.

**Шавкат ХАСАНОВ,  
Шароф Рашидов номидаги  
Самарқанд давлат университети  
кафедра мудири, профессор.**

**Aslida mening gapim yangilik emas. Negaki ajdodlarimizdan qolgan deyarli barcha kitoblarda, asarlarda tarbiya haqida ko'p yozilgan. Xulosha ham aniq – ota-onva kattalarning ibrati yoshlar tarbiyasida birlamchi mezon. Murakkabligi shundaki, o'qish jarayonida, aniqrog'i, o'rta maktabda ta'limgarib boriladi. Va asosiy urg'u ko'pincha ta'limga, bolaning fanlarning o'zlashtirishiga beriladi. Biroq ta'limgarayoni muvaffaqiyati ham o'qituvchining xislatiga hamda o'quvchining odobiga kelib taqaladi. Shu sababli bu jarayonni takomillashtirish maqsadida maktablarda amaliyotchi-psixolog shtatlari joriy etilgan.**

Tajribamidan sezyapmanki, bu sohadagi harakatlar maktablar uchun juda zarur edi va yaxshi samara beryapti ham. Biz, o'qituvchilar darsga ruhiy kayfiyatini to'g'rilash, yaxshilash maqsadida nafaqat o'g'il-qizlar, balki muallimlar o'tasida ham suhbatlar yuzasidan yagona fikrga kelamiz.

Sarlavhada aytganimdek, shaxsий ibrat tarbiyada muhim ahamiyatiga ega. Misol uchun, bolaga uning noo'rin harakatini aytishdan oldin shu holatda qanday yo'l tutish kerakligini aytib o'tamiz. To'g'ri yo'l tutganda yoki xato ish qilganda kelib chiqadigan oqibatlar haqidagi gapiramiz. Ana undan keyin bolaning fikrini ham eshitamiz. Zero, bu usul bolada ham muomala madaniyatini shakllantiradi.

Maktab hovlisida, koridor va sinf-

2025-yil 3-may  
SHANBA

O'qituvchi mulohazasi



## Shaxsiy ibrat – tarbiyaning asosi

xonalarda yurish tartibini o'quvchilar o'z muallimlaridan o'rganishadi. Ya'ni, ularga unday yur, bunday yur deb o'rgatish shart emas. Aytaylik, maktab hovlisidagi maysazor yoki gul ekilgan joydan sakrab o'tsangiz, bola ham shunday qiladi. Qog'ozni hovliga tashlasangiz, o'quvchi ham shunday qiladi. Shu sababli biz, muallimlar yurish-turishimizda, gap-so'zimizda nafaqat o'quvchiga, hatto bir-birimizga ham ibrat bo'lishga intilamiz.

O'quvchilarimdan biriga yo'l qoidasi haqida tushuntirish berdim. Svetoforning qaysi rangi yonganda o'tish zarurligi, yo'lga chizilgan piyodalar belgisidan o'tish kabi holatlarni tushuntirdim, unga rioya etmaslik oqibatlariga misollar keltirdim. Shunda o'quvchim «Nega menga bu haqda gapiryapsiz?», deb so'radi.

Men urning ertalab maktabga kirib keleshda onasi bilan birga yo'l qoidasini buzganligini aytdim. «Onam qo'lidan ushlab yur degandan keyin yurdim-da», dedi u. Ochig'i, samimiy suhbatdan keyin bolaning fikrini o'sha bola onasiga yo'ldan o'tishda qoidaga rioya qilish kerakligini aytibdi. Men aytgan tartibi onasiga ham tushuntiribdi. Darsdan so'ng haligi ayol huzurimga kelib, bolasiga bergan hayotiy sabog'im uchun rahmat aytib ketdi, kechirim ham so'rav qo'ydi. Bunday paytda muallim bo'lganligimdan quvonaman.

Ammo ba'zan juda noqulay vaziyatlarga duch kelamiz. Maktabda tartib-intizomli, intiluvchan bola uyiga borgach, nazorat yo'qligidan taltayib ketadi, mas'uliyatini unutadi. Ayrim ota-onalar bola fe'lidiagi o'zgarishlar bilan qiziqishmaydi. Ayniqsa, jismoniy o'sish davridagi ruhiy o'zgarishlarni o'yin-

qaroqlik, jizzakilik deb tushunishadi. Bu holatni o'g'il yoki qizini urushib yengishga intilishadi. Ba'zida bunday ota-onalarga gapimiz o'tmaydi. Ular bolasining tarbiyasida uyida emas, aynan maktabda buzilayotganligini pesh qilişadi. Vaholanki, bida oilda oilada yaxshi tarbiya ko'rgan bolalar darsda ham, yurish-turishda ham, jamaot orasida ham odob saqlashadi. Hatto ana shunday madaniyatli bolalarni misol qilib keltirsak ham ba'zi ota-onalar tushunishni istashmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, ta'limgaribda o'qituvchining vazifasi maktabda o'quvchining darsga bo'lgan ishtiyochini kuchaytirish, ilmga intilishini oshirish hamda uning jaomat ichida tartib-intizomli bo'lismeni ta'minlashdan ham iborat. Uchrayotgan noxush holatlarni bartaraf etishda ham, baribir ota-onadan olgan ibrati bo'lishi kerak. Aks holda, harakatimiz zoe ketadi. Bu nozik masalada ota-onalar doimo hushyor bo'lismeni istar edim.

**Gulshoda ABDURASULOVA,  
Samarqand shahridagi  
5-maktabning biologiya fani  
o'qituvchisi.**



## Ijtimoiy tarmoq vaqtimizni o'g'irlayapti

**Ota-onam bolaligidagi tengdoshlari bilan o'ynagan “Oq terakmi, ko'k terak?”, “Yashinmachoq”, “Quvlashmachoq”, “Arqonda sakrash” va boshqa xalq o'ynlari haqida zavq bilan gapirib berishadi. Shunda o'sha davrga tushib qolgandek bo'laman. “Nega bizda unday emas”, degan savol qiyaydi meni. Javob ham tayyor o'zimda: “Hammasinga telefon sabab”.**

Ba'zida bir kun bo'lsa-da, hamma telefonlar buzlib qolsa-yu, biz ham o'sha qiziqarli o'ynlarni o'ynasak, degan fikr o'tadi xayolimidan. Shu telefon, ijtimoiy tarmoqlar bolaligimizdagи qancha-qancha vaqtini o'g'irlayapti, yoshligimizning qimmatli onlari behuda sarflanmoqda. Kela-jakda foydasidan ko'ra zarari ko'p tegishi mumkin bo'lgan bu tarmoqlar bizni qayqoqqa yetaklashi nomalama.

O'zimni kitob o'qyldigan, telefonidan kam foydalananidan yoshlarning buri, deb bilaman. Shu gapimning isboti sifatida bir kuni sinab ham ko'rdim. Darslarimni qilib, biroz dam olish maqsadida telefonni qo'limga oldim. “Telegram”da bir qarindoshimdan kelingan xabarini o'qidim. Keyin boshqa dunganing “Instagram” havolasidan kelgan “Dugonajon, seni yaxshi ko'raman!” mavzusidagi she'r o'qilgan video ni ko'rdim. U tugagach, boshqa bir video chiqdi, uniyam ko'rdim. Jaron shu taripa davom etib, yarim soatsha vaqtidan keyin o'qishim bilan bog'liq reklama roligiga ko'zim tushdi. U men qiziqib yurgan til o'rnatish markazi haqidagi reklama edi. Unda qisqacha ma'lumot berilib, videoning to'liq variantini “youtube”da tomosha qilishimiz mumkinligi aytildi. Keyin “youtube”ga o'tdim. Xullas, 2 soatu 15 daqiqa vaqtim shu bilan o'tdi.

Ushbu mavzuda maqola yozishni maqsad qilib, us-tozlar ko'magida Zarnews.uz telegram kanalida so'rov nomi e'lon qildik. Unda “Bir kunda qancha vaqtinzing ijtimoiy tarmoqqa sarlaysiz?”, degan savol qo'yildi. So'rovnomada 726 nafar obunachi ovoz bergan.



Ularning 131 n